


## VIII. TASHQI SAVDO AYLANMASI

2026- yil yanvar-mart oylarida viloyatning tashqi savdo aylanmasi (matnda TSA) 380,8 mln. AQSH dollariga yetdi va 2025- yilga nisbatan 17,7 mln. AQSH dollariga yoki 4,9 % ga ko‘paydi.

**2026-yil yanvar-mart oylarida Tashqi savdo aylanmasi**  
(mln. AQSH dollari)



TSAda eksport hajmi 99,7 mln. AQSH dollariga (2025-yilning yanvar-mart oyiga nisbatan 23,2 % ga ko‘paydi) va import hajmi 281,1 mln. AQSH dollariga (0,4 % ga ko‘paydi) yetdi. Hisobot davrida – 181,4 mln. AQSH dollari qiymatida manfiy tashqi savdo balansi qayd etildi.

**Buxoro viloyatining yirik hamkor davlatlar  
bilan tashqi savdo aylanmasi dinamikasi** (mln. AQSH dollari)

Davlatlar	2024-yil	2025-yil	2026-yil
Rossiya	94,3	140,2	135,4
XXR	95,7	82,3	59,1
Turkmaniston	36,1	20,4	37,6
Afg‘oniston	9,5	21,2	35,1
Eron	10,0	13,9	22,1
BAA	0,9	2,9	21,6
Qozog‘iston	11,3	13,9	15,8
Turkiya	19,7	13,1	7,9
Qirgiz Respublikasi	4,4	5,3	6,9
Tojikiston	2,0	6,6	6,8
Gonkong	0,2	0,2	6,1
Germaniya	12,3	6,3	4,6
AQSH	0,3	2,8	3,1
Hindiston	2,8	8,8	2,3

*davomi*

<i>Davlatlar</i>	<i>2024-yil</i>	<i>2025-yil</i>	<i>2026-yil</i>
Polsha	1,9	1,9	2,0
Shveysariya	0,2	0,1	2,0
Belarus	0,8	2,3	1,1
Mongoliya	0,0	0,0	1,0
Koreya Respublikasi	2,2	1,3	0,9
Ukraina	0,6	0,8	0,9

Buxoro viloyati 103 ta mamlakatlar bilan savdo aloqalarini amalga oshirib kelmoqda. TSAning nisbatan salmoqli hissasi Rossiyada (35,6 %), XXR da (15,5 %), Turkmanistonda (9,9 %) Afg‘onistonda (9,2 %) va Qozog‘istonda (5,8 %) qayd etilgan.


### **BUXORO VILOYATINING EKSPORTI TARKIBI**

<i>Tarkibi</i>	<i>Mln. AQSH dollari</i>		<i>O‘zgarish sur‘ati, % da</i>		<i>Umumiy hajmga nisbatan, % da</i>	
	<i>2025- y.</i>	<i>2026- y.</i>	<i>2025- y.</i>	<i>2026- y.</i>	<i>2025- y.</i>	<i>2026- y.</i>
<b>Jami eksport</b>	<b>80,9</b>	<b>99,7</b>	<b>123,7</b>	<b>123,2</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	7,7	7,8	3,3 m.	100,2	9,6	7,8
Ichimliklar va tamaki	0,6	0,4	100,0	75,2	0,7	0,4
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg‘idan tashqari	2,4	2,3	97,0	94,5	3,0	2,3
Mineral yoqilg‘i, yog‘lash moylari va shunga o‘xshash materiallar	19,6	25,5	2,1 m.	129,8	24,3	25,6
Hayvon va o‘simliklar moylari (yog‘lari), yog‘lar va mumlar	-	3,4	-	-	0,0	3,4
Kimyoviy vositalar va shunga o‘xshash mahsulotlar	1,0	5,2	104,8	5,1 m.	1,2	5,2
Sanoat tovarlari	30,8	26,5	78,8	86,2	38,0	26,6
Mashinalar va transport asbob-uskunalari	7,3	12,4	71,3 m.	170,2	9,0	12,4
Turli xil tayyor buyumlar	5,5	9,7	122,6	175,7	6,8	9,7
Xizmatlar	6,0	6,6	109,4	110,3	7,4	6,6

Eksport tarkibida tovarlar ulushi 93,4 % ni tashkil etib, asosiy ulush sanoat tovarlari (26,6 %), mineral yoqilg‘i, yog‘lash moylari va shunga o‘xshash materiallar (25,6 %), mashinalar va transport asbob-uskunalari (12,4%) hamda oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar (7,8 %) hissasiga to‘g‘ri kelmoqda.


**Buxoro viloyatining yirik eksportyor hamkor davlatlari**

( 2026- yil yanvar - mart , mln. AQSH dollari)



2026-yil yanvar-mart oylarida tashqi savdo aylanmasida tovarlar va xizmatlar eksporti bo‘yicha asosiy hamkorlarimiz Afg‘oniston (41,2 %), Rossiya (31,2 %), Tojikiston (5,7 %), Qozog‘iston (4,0 %), Qirg‘iz Respublikasi (2,8 %), Germaniya (2,1 %), Turkmaniston (1,8 %), AQSH (1,4 %), Polsha (1,3 %) va XXR (1,2 %) kabi davlatlar bo‘lgan. Ularning umumiy eksportdagi ulushi 92,7 % ni tashkil etdi.

**Xizmatlar eksporti tarkibi (mln. AQSH doll.)**



Xizmatlar eksporti hajmi 6,6 mln. AQSH dollarini yoki jami eksport hajmining 6,6 % ini tashkil etib, 2025- yilning mos davriga nisbatan 10,3 % ga ko‘paydi. Xizmatlar eksporti tarkibining asosiy ulushi safarlar (turizm) (16,7 %), transport (18,2 %), telekommunikatsiya, kompyuter va axborot (19,7 %) va boshqa tadbirkorlik bilan bog‘liq xizmatlar (36,4 %) hissasiga to‘g‘ri kelgan.

### BUXORO VILOYATINING IMPORTI


2026-yilning yanvar-mart oylarida import hajmi 281,1 mln. AQSH dollariga yetdi va 2025-yilning mos davriga nisbatan 0,4 % ga kamaydi. Import tarkibida eng kata ulush, Kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar (33,4 %), mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar (27,9 %), Mashinalar va transport asbob-uskunalari (16,8 %), sanoat tovarlari (11,8 %) hamda hisobiga to'g'ri keldi

#### Buxoro viloyatining importi tarkibi

XSST tarkibi	Mln. AQSH dollari		O'sish sur'ati, % da		Umumiy hajmga nisbatan, % da	
	2025- y.	2026- y.	2025- y.	2026- y.	2025- y.	2026- y.
<b>Jami import</b>	<b>282,2</b>	<b>281,1</b>	<b>113,0</b>	<b>99,6</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	6,3	7,6	170,1	121,2	2,2	2,7
Ichimliklar va tamaki	0,3	0,2	3,7 m.	79,6	0,1	0,1
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari	3,6	5,4	127,8	148,3	1,3	1,9
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	96,7	78,5	94,7	81,2	34,3	27,9
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	0,0	0,4	8,0	14,7 m.	-	0,1
Kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar	27,1	93,9	2,0 m.	3,5 m.	9,6	33,4
Sanoat tovarlari	38,5	33,3	3,0 m.	86,4	13,7	11,8
Mashinalar va transport asbob-uskunalari	87,9	47,4	102,0	53,9	31,1	16,8
Turli xil tayyor buyumlar	21,7	14,4	76,7	66,0	7,7	5,1
Boshqa tovarlar	-	-	-	-	-	-
Xizmatlar	-	0,1	-	17,7 m.	-	-

Tovarlar importi dinamikasi tahliliga ko'ra, 2026-yilning yanvar-mart oylarida import qilingan tovarlar hajmi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 1,2 mln. AQSH dollariga kamaydi va 281,1 mln. AQSH dollarini tashkil etdi. Xizmatlar importi esa 0,1 mln. AQSH dollariga yetdi.

**Buxoro viloyatining yirik importyor hamkor davlatlari**  
(mln. AQSH dollari)



2026-yil yanvar-mart oylarida Buxoro viloyati 66 ta davlatdan tovar va xizmatlar importini amalga oshirdi. Yirik hamkor davlatlar Rossiya (37,3 %), XXR (20,6 %), Turkmaniston (12,7 %), Eron (7,8 %), BAA (7,7 %), Gonkong (2,2 %), Qozog'iston (2,6 %), Turkiya (2,3 %) va Germaniya (0,9 %) jami importning 95,3 % ni tashkiletdi.

### Statistik ko'rsatkichlarga izohlar

**Tovar** – har qanday ko'chma mulk, shu jumladan valyuta va valyuta qimmatliklari, elektr, issiqlik va boshqa energiya turlari, transport vositalari (yo'lovchilar va tovarlar tashish uchun ishlatiladigan transport vositalari, shu jumladan konteynerlar va boshqa transport uskunalari bundan mustasno), intellektual mulk ob'ektlari.

**Tovarlar eksporti** – agar qonunchilikda boshqa tartib ko'zda tutilmagan bo'lsa, tovarlarni O'zbekiston Respublikasi bojxona chegarasidan qaytarib olib kirish majburiyatisiz olib chiqish.

**Reeksport** – xorijiy tovarlar bojxona hududidan olib chiqiladigan bojxona rejimi.

**Tovarlar importi** – tovarlarni O'zbekiston Respublikasi bojxona chegarasidan qaytarib olib chiqish majburiyatisiz olib kirish.

**Reimport** – bojxona hududidan eksport rejimida olib chiqilgan O'zbekiston Respublikasi tovarlari O'zbekiston Respublikasining Bojxona kodeksida ko'rsatilgan muddatda (olib chiqilgan paytdan boshlab o'n yil ichida) qaytarib olib kiriladigan rejim.

**Tashqi savdo aylanmasi** – mamlakatning muayyan davrdagi eksport va import qiymatlari summasi.

**Tovarlar kelib chiqqan mamlakat** – tovar to'liq ishlab chiqarilgan yoki etarli darajada qayta ishlov berilgan mamlakat (tovar etarli darajada qayta ishlov berilgan mamlakat "Bojxona tarifi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonunining 26 - moddasiga asosan aniqlanadi).

**Tovarlarning belgilangan manzili** – yuklab jo'natish paytida tovar etkazib berilishi belgilangan mamlakat sifatida ma'lum bo'lgan mamlakat.

**Tovarlarning statistik qiymati** – shartnoma valyutasidan qat'iy nazar yagona bazisga keltirilgan shartnoma bo'yicha tovarlar qiymati.

**SIF (qiymat, sug'urtalash, fraxt)** – tovarlarni sotish sharti bo'lib, unga ko'ra tovar narxiga uning qiymati va tovarni sug'urtalash hamda import qiluvchi mamlakat portigacha etkazib berish xarajatlari kiritiladi.

**SIP (fraxtG'tashish va sug'urtalash)** – tovarlarni sotish sharti bo'lib, unga ko'ra tovar narxiga uning qiymati va tovarni sug'urtalash hamda import qiluvchi mamlakatning chegarasidagi belgilangan joygacha etkazib berish xarajatlari kiritiladi.

**FOB (bortda erkin)** – tovarni sotish sharti bo'lib, unga ko'ra tovar narxiga uning qiymati va tovarni kema bortigacha etkazib berish va yuklash xarajatlari kiritiladi.

**DAF (chegaragacha etkazib berish)** – tovarni sotish sharti bo'lib, unga ko'ra tovar narxiga uning qiymati va tovarni belgilangan joygacha yoki eksport qiluvchi mamlakat chegarasidagi joygacha yoxud qo'shni mamlakat chegarasigacha yetkazib berish xarajatlari kiritiladi.

**Xizmatlar (ishlar) eksporti** — O'zbekiston Respublikasining rezidentlari tomonidan norezidentlarga, iqtisodiy geografik joylashuvidan qat'i nazar, ko'rsatilgan xizmatlar (bajarilgan ishlar).